

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ  
ОЛИЙ ТАЪЛИМ, ФАН ВА ИННОВАЦИЯЛАР ВАЗИРЛИГИ  
БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ  
АРХЕОЛОГИЯ ВА БУХОРО ТАРИХИ КАФЕДРАСИ

**БУХОРО ТАРИХИ МАСАЛАЛАРИ**  
(Энг қадимги замонлардан ҳозиргача)

*мавзусида Республика миқёсидаги илмий-амалий конференция*

**МАТЕРИАЛЛАРИ**

**2024 йил 10 май**

**Бухоро – 2024**

Илмий-амалий анжуман Бухоро тарихи, манбашунослиги, тарихшунослиги, археологияси, этнографияси, нумизматикаси, шаҳарсозлиги, маданият ва санъати соҳаларида амалга оширилётган энг янги илмий натижаларни илмий жамоатчиликка етказиш, фан ва таълимнинг узвий боғлиқлигини кучайтириш мақсадида Бухоро давлат университетида **2024 йил 10 май** куни **“БУХОРО ТАРИХИ МАСАЛАЛАРИ”** (ЭНГ ҚАДИМГИ ЗАМОНЛАРДАН ҲОЗИРГАЧА) мавзусидаги Республикао миқёсида илмий-амалий конференция белгиланган тадбирларни амалга ошириш мақсадида ўтказилди.

Ушбу илмий тўплам кенг илмий жамоатчилик, Бухоро тарихи билан қизиқувчилар, тарихчилар, магистрантлар ва талаба ёшларга мўлжалланган

**Масъул муҳаррир:**

**БухДУ профессори, тарих фанлари доктори**

**Ҳ.Ҳ.Тўраев**

**Таҳрир хайъати ва аъзолари:**

О.Х.Хамидов - Бухоро давлат университети ректори, и.ф.д., профессор

Т.Х.Расулов - илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректор, ф.ф.д., профессор

А.А.Болтаев - Тарих в юридик факультети декани, ф.ф.д., доцент

Ф.У.Темиров - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси мудири, т.ф.ф.д (PhD) доцент

С.И.Иноятов – Бухоро давлат университети профессори, т.ф.д.

М.И.Ниязова - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси доценти, т.ф.н

М.Б.Қурбонова - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси доценти, т.ф.н

Ф.Ҳ.Бобоҷонова - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси доценти, т.ф.н

А.Ҳ.Болтаев - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси доценти, т.ф.ф.д (PhD)

Б.Б.Болтаев - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси катта ўқитувчиси, т.ф.ф.д (PhD)

О.И.Ражабов - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси катта ўқитувчиси,

Ш.Ў.Носиров – Археология ва Бухоро тарихи кафедраси ўқитувчиси,

**Тўпловчи ва нашрга тайёрловчилар:**

**Темиров Ф.У. –** Археология ва Бухоро тарихи кафедраси мудири

**Умаров Б.Б. –** Археология ва Бухоро тарихи кафедраси ўқитувчиси

**Носиров Ш.Ў –** Археология ва Бухоро тарихи кафедраси ўқитувчиси

Мазкур тўплам Бухоро давлат университети Илмий Кенгашининг 2024 йил 4 майдаги  
9 – сонли қарори билан нашрга тавсия қилинган.

*Илмий-амалий анжуман материалларида ёритилган тарихий жараёнлар,  
маълумотлар, чиқарилган хулюсалар, манба ва адабиётлар учун муаллифларнинг  
ўзлари масъул ва жавобгардир*

**P.I.DEMEZON VA I.V.VITKEVICH ASARLARIDA BUXORO AMIRLIGI TARIXI  
MASALASI**

**Sharopov Dilshod Ravshan o‘g‘li  
Buxoro davlat universiteti  
Arxeologiya va Buxoro tarixi  
kafedrasи o‘qituvchisi**

Buxoro amirligining XIX asr I yarmidagi hayoti haqida so‘z borganda P.I.Demezon va I.V.Vitkevichlarning<sup>1</sup> hisobotnomalar shaklida yozilgan asarini muhim manbalardan biri sifatida ko‘rishimiz mumkin. Orenburg chegaraviy komissiyasida tarjimon bo‘lib faoliyat yuritgan P.I.Demezon 1833-1834 yillarda Orenburg harbiy gubernatori V.A.Perovskiy topshirig‘iga binoan Buxoroga yuboriladi. P.I. Demezonga Orenburg harbiy gubernatorining Buxoro qushbegisiga yo‘llangan maktubi va ushbu maktubni yetkazish uchun unga gubernatorning sovg‘a-salomlari ham beriladi. 1833-yil 10-noyabrdan Orskdan karvon yo‘lga chiqadi. Ushbu karvon tarkibida sharqlik savdogarlar orasida P.I.Demezon ham bor edi. U karvonga tatar mullasi Mirza Ja’far nomi bilan qo’shilgan edi. Buxoroda bo‘lganida ham shu nom bilan o‘ziga topshirilgan vazifani bajaradi. Karvon xo‘jayini buxorolik Niyoz Muhammad, karvon yo‘lboshchisi esa –tajribali qozoq Almat edi (Almat, 1834-yil oktabrda rus hukumatining rejalarini asosida karvonni Buxoroga olib borganligi va shaharga Mirza Ja’far (P.I.Demezov)ni kiritganligi kabi xizmatlari inobatga olinib mukofotlangan. V.A.Perovskiyning Orenburg chegara qo’shinlari qo’mondoni F.G.Gensga “... yo‘lboshchi qozoq Almatga kumush medal qadalgan tasma va qilich hadya qilinsin” mazmunidagi xabar yo’llaydi)<sup>2</sup>. 29-dekabrdan karvon Buxoroga yetib keladi. Hech kim uni aslida kimligini payqamaydi. Bu haqida o‘zi xotiralarida ham ta’kidlab o’tadi. 4 oy davomida Buxoroda bo‘lgan Mirzo Ja’far ko‘p ishlar qilishga ulgurdi. U 1834-yil aprelda o‘zining dastlabki to’plagan ma’lumotlarini Orenburgga yubordi. Buxoro shayx ulislomi bilan yaqin aloqada bo‘ldi va Perovskiyning qushbegiga yo‘llagan maktubini yetkazdi. P.I. Demezon yana ikkita mukammal hisobnoma tayyorladi va ularni o‘zi bilan birga Orenburgga olib bordi va 1834-yil 26-iyunda topshirdi<sup>3</sup>. P.I. Demezov Buxorodagi maishiy hayot, savdo-sotiq, pul munosabatlari oid 25 punktdan iborat hisobot to’plamini yig’di. Shuningdek, u hunarmandchilik va harbiy sohaga taaluqli qimmatli ma’lumotlarni ancha to’la va eng haqiqiy faktlar hamda sonlar asosida sanab o’tadi. P.I.Demezon Buxoro amirligidagi barcha bozorlar va ularning qurilish strukturasi haqida ham ma’lumot beradi.<sup>4</sup>

Buxoro aholisining maishiy turmush tarzi bilan bog’liq muhim ma’lumotlarni ham keltirib o’tadi. Xususan, hunarmandlar haqida so‘z yuritib, Buxoroni O’rta Osiyodagi eng katta hunarmandchilik markazi ekanligini va XIX asr boshlarida 8-9 ming hunarmand bo‘lib, ularning 20-25 foizi shaharda faoliyat yuritganligini qayd etadi.<sup>5</sup>

Buxoroda temirchilik haqida qisqacha so‘z yuritib, uni mustaqil 5 tarmoqqa bo‘linganligini aytib o’tadi. Bular : temirchilik, qozon quyuvchilar, misgarlik, rextagarchilik va zargarlik. Usta Sharif Kamolovning bergen ma’lumotiga ko‘ra o’sha davrda 150 ta temir

<sup>1</sup> Записки о Бухарском ханстве (Отчёты П.И.Демезона и И.В.Виткевича). - М., Гл. редакция восточной литературы. Из-во «Наука».- 1983

<sup>2</sup> Записки о Бухарском ханстве (Отчёты П.И.Демезона и И.В.Виткевича). - М., Гл. редакция восточной литературы. Из-во «Наука».- 1983 6 л. 107

<sup>3</sup> Записки о Бухарском ханстве (Отчёты П.И.Демезона и И.В.Виткевича). - М., Гл. редакция восточной литературы. Из-во «Наука».- 1983 3 л. 28

<sup>4</sup> Ханыков.Н Описание Бухарского ханства –СПб,1876 с 236

<sup>5</sup> Записки о Бухарском ханстве (Отчёты П.И.Демезона и И.В.Виткевича). - М., Гл. редакция восточной литературы. Из-во «Наука».- 1983 6 л. 97

## **Бухоро тарихи масалалари (энг қадимги замонлардан ҳозиргача)**

quyuvchi hunarmand (chelangarlar) bo'lgan<sup>1</sup>. Rextagarlar qadimdan Qorako'l darvoza atrofida yashab, mehnat qilishgan.

Charmgarlik ham Buxoroda taraqqiy etgan hunarmandchilik turi hisoblanadi. O'sha davrda Buxoroda teri oshlovchilik ikki yirik tarmoqqa bo'lingan, kemuxtgar ( past sortli teriga ishlov beruvchilar ) va charmgarlik ( sifatli teriga ishlov beruvchilar. Ular 40 ga yaqin mahallada yashashgan.

P.I.Demezon 1836-1856-yillarda Peterburgda faoliyat yuritgan bo'lsa, 1857-yildan umrining oxirigacha Parijda yashadi va bu yerda Abulg'ozi Bahodirxonning "Shajarai turk" asarini fransuz tiliga tarjima qildi va uni chop etishga tayyorladi.

P.I.Demezon haqida so'z borganda, bevosita uning ishini davom ettirgan 10-orenburg chegara batalyonni kichik ofitseri I.V.Vitkevichni esga olmaslikning iloji yo'q. U yozib qoldirgan hisobot Demezonning xotiralarini to'ldirbgina qolmay, amirlikning XIX asr 30-yillaridagi hayotini yaqqol olib beradi. I.V.Vitkevichning Buxorodagi faoliyati ancha murakkab kechgan. Unga Orenburgdan turli xil topshiriqlar yuborilib turilgan. Amirlikda bo'layotgan har qanday voqeа haqida ma'lumot berib turishi kerak edi. U o'ziga topshirilmagan vazifalarni ham bajargan. Xususan, Orenburg tashqi ishlar ministry K.V.Nesselrod 1836-yil 5-mayda V.A.Perovskiyga Vitkevichning Afg'oniston amiri Do'st Muhammadxonning Buxoroga yuborgan elchisi Xusayn Ali bilan uchrashganligini va uni Peterburgga borishini taklif qilganligini yetkazgan. Aslida unga bunday vazifa yuklanmagan edi. I.V.Vitkevich elchi Xusayn Ali bilan yaxshi munosabatga kirishadi va uni Peterburgga o'zi olib keladi. Vitkevichning xizmatlari natijasida o'larоq rus-afg'on elchilik munosabatlariga yo'l ochildi.

I.V.Vitkevich Demezonning ma'lumotlari haqida so'z yuritib, uning juda ko'plab ma'lumotlari juda aniqligini ta'kidlab o'tadi. Hunarmandlarning mahallalari haqida ma'lumot to'plab, etikdo'zlar 32 ta, temirchilar 38 ta, gilkorilar 34 ta, po'stindoo'zlar 27 ta, rextagarlar 28 ta mahallada iste'qomat qilganliklarini yozadi<sup>2</sup>.

Xulosa qilib aytish mumkinki, P.I.Demezon va I.V.Vitkevichlarning hisobotlarida savdosoti, harbiy sohalardan tashqari Buxoroning maishiy hayoti haqida ham juda muhim ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

## **БУХОРО АМИРЛИГИДАГИ КРЕДИТ ТАШКИЛОТЛАР ФАОЛИЯТИ**

**Феруза Сайдуллаевна Амонова,**

**Ўзбекистон ФА Тарих институти докторанти,  
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)**

**E-mail: [amonovaferuza230@gmail.com](mailto:amonovaferuza230@gmail.com)**

**Тел: +99893 477-51-76**

Банкни ҳаракатлантирувчи омил омонат-кредит тизими бўлиб, пул маблағлари эвазига даромад олишдан иборат. XIX асрнинг иккинчи ярмидан Бухоро амирлиги худудида ҳам давлат ва хусусий тижорат банкларнинг бўлимлари ташкил этилган. Ушбу банклар амирликда фаолиятини бошлаган рус ва чет-эл фирмаларини молиявий таъминлаш, рус савдогарларга қарз бериш, товарларни манзилга етказиш учун кетган барча харажатларни қоплаш ва бошқа мақсадларга хизмат қилган. Кредит ташкилотлар асосан худуднинг гавжум шаҳарларида ва рус манзилгоҳларида қурилган.

Бухоро амирлиги иқтисодиётига оид тадқиқотларда банк фаолиятига оид турлича фикрлар мавжуд. Тадқиқотларда амирлик худудида дастлабки банк фаолияти 1891 йилдан бошланган дейилса, бальзи адабиётларда 1892 йилда Бирлашган банкнинг фаолияти билан бошланганлиги келтирилган. Масалан, З.К.Хакимов ва Л.Н.Кравецларнинг ҳаммуаллифликда ёзилган "Социально экономические отношения и классовая борьба в

<sup>1</sup> Русские в Бухару в 1820 году (записки очевица) –Оренбургские ведомости 1870; Справочная книжка Оренбургского края на 1871 г. с 27

<sup>2</sup> Записки о Бухарском ханстве (Отчёты П.И.Демезона и И.В.Виткевича). - М., Гл. редакция восточной литературы. Из-во «Наука».- 1983 6 л. 102

## **Республика миқёсидаги илмий-амалий конференция**

Yo'ldoshova Gulmira Samandar qizi, O.SH.Ahmadov. О'QUVCHI-YOSHLAR IJTIMOIY FAOLLIGINI OSHIRISHDA BUXORO JADID MA'RIFATPARVARLARINING TARIXIY MEROSI .....	286
Sharopov Dilshod Ravshan o'g'li. P.I.DEMEZON VA I.V.VITKEVICH ASARLARIDA BUXORO AMIRLIGI TARIXI MASALASI.....	288
Феруза Саъдуллаевна Амонова. БУХОРО АМИРЛИГИДАГИ КРЕДИТ ТАШКИЛОТЛАР ФАОЛИЯТИ.....	289
D.E. Saidova. BUXORO ADABIY MUHITIDA MUSIQIY NEGIZLAR (XIX-XX ASR).....	292
<b>3-ШЎЬБА “БУХОРИЙ” ЛАРНИНГ ИЛМИЙ, ТАРИХИЙ ВА АДАБИЙ МЕРОСИ, УЛАРНИНГ ЖАҲОН ИЛМ-ФАН ВА МАДАНИЯТИГА ҚЎШГАН ҲИССАСИ .....</b>	<b>295</b>
Қодирхон Маҳмудов. ИМОМ БУХОРИЙНИНГ “АЛ-ҚИРОАТУ ХАЛФАЛ ИМОМ” АСАРИ ТАЪРИФИ ВА ФИҚХИ .....	295
Qamariddinova Gulrux Akmal qizi. RASHAHOT – BUXORODAGI XO'JAGON TARIQATI ULUG'LARINING ILM YO'LI TO'G'RISIDAGI QIMMATLI MANBA .....	297
Шоназаров Абдувоси Абдибоқиевич. АБУ ЖАҲФАР ВАРРОҚ БУХОРИЙ ВА УНИНГ “ШАМОИЛИ БУХОРИЙ” РИСОЛАСИННИНГ ЖАҲОН ИЛМ-ФАНИ РИВОЖИГА ҚЎШГАН ҲИССАСИ .....	299
A.N.Hakimova. IMOM AL-BUXORIY ILMIY MERO SINING JAON ILM-FANI VA MADANIYATGA TUTGAN O'RNI .....	302
Azimova Muhabbat Samadovna. BUXORIY IJODIDA BUXORO TARIXI MAVZUSI .....	304
<b>4-ШЎЬБА ЖАҲОН МАДАНИЙ МЕРОСИ ТАРКИБИДА “БУХОРОДАГИ МУҚАДДАС ҚАДАМЖОЛАР, ЗИЁРАТГОҲЛАР, АЗИЗ АВЛИЁЛАР ЗИЁРАТ ТУРИЗМИ ОБЪЕКТИ” СИФАТИДА ЎРГАНИЛИШИ .....</b>	<b>308</b>
Хамраев Азалшоҳ Ҳазратович. БУХОРОДАГИ ТУРКИ ЖАНДИ МАҚБАРАСИ ТАРИХИ .....	308
Rajabov Oybek Iskandarovich. HAZRAT KA'BUL AHBOR qadamjosi xususida.....	317
Жамшид Халилов, Умиджон Бақоев. БУХОРОДАГИ ШАЙХ САЙФИДИН БОХАРЗИЙ МАҚБАРАСИДАГИ ЁҒОЧ ЎЙМАКОРЛИК САҒАНАСИ .....	319
Савриев Жасур Фахриддинович. “НАВОИЙ ВИЛОЯТИДАГИ МУҚАДДАС ҚАДАМЖОЛАР, ЗИЁРАТГОҲЛАР, АЗИЗ АВЛИЁЛАР ЗИЁРАТ ТУРИЗМИ ОБЪЕКТИ”СИФАТИДА ЎРГАНИЛИШИ .....	322
Ismoilova D.A., Biyev N.O. BUXORODAGI MUQADDAS QADAMJOLAR, ZIYORATGOHLAR, AZIZ AVLIYOLAR ZIYORAT TURIZMI OB'EKTI SIFATIDA .....	325
<b>5- ШЎЬБА БХСР ВА СОВЕТ ДАВРИДА БУХОРО ТАРИХИ МАСАЛАЛАРИНИНГ ЎРГАНИЛИШИ (АРХЕОЛОГИЯ, ЭТНОГРАФИЯ, ШАҲАРСОЗЛИК, ИЛМ-ФАН,.....</b>	<b>328</b>
Қаҳрамон Ражабов. ТУРКИСТОН ҚЎРБОШИЛАРИ ВА ЖАДИДЛАРИНИНГ МУСТАҚИЛЛИК УЧУН КУРАШИ.....	328
Темур Хўжаўғли БУХОРО ХАЛҚ ШЎРОЛАР ЖУМХУРИЯТИДАГИ ВАҶЕАЛАРНИНГ БЕШ ЖОНЛИ ГУВОХИ .....	337
Фарруҳ Темиров. САДРИДДИН АЙНИЙНИНГ БУХОРО ХАЛҚ СОВЕТ РЕСПУБЛИКАСИ (БХСР) ДАВРИДАГИ ИЛМИЙ – ИЖОДИЙ ФАОЛИЯТИ. Биринчи мақола .....	344
Фарруҳ Темиров. САДРИДДИН АЙНИЙНИНГ БУХОРО ХАЛҚ СОВЕТ РЕСПУБЛИКАСИ (БХСР) ДАВРИДАГИ ИЛМИЙ – ИЖОДИЙ ФАОЛИЯТИ. Иккинчи мақола .....	347
Бобожонова Феруза Хаятовна. БУХОРО ХАЛҚ СОВЕТ РЕСПУБЛИКАСИДА МАКТАБ МАСАЛАЛАРИ .....	349